

## O'QUVCHILARDA KO'NIKMA VA MALAKALARINING TARKIBIY QISMLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISH JARAYONI

*Xolmuratova Mahbuba Mahmudovna*
*Toshkent Davlat Pedagogika universiteti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarning bilim ko'nikma va malakalarining tarkibiy qismlari va ularni rivojlantirish jarayoni hamda o'quvchining kasbiy ko'nikmalarni tez va oson o'zlashtirishi uning nafaqat umumiy qobiliyatlar, balki shu asosda shakllangan maxsus kasbiy qobiliyatlarning ham yuqori darajada ekanligini to'g'risida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar** bilim, ko'nikma malaka, o'quvchi, tashxis, zaruriyat, yondashuv rivojlantirish

Inson o'z hayotining ma'lum davrida boshqariladigan va aniq maqsadga yo'naltirilgan ta'lif va tarbiya jarayonida ishtiroy etadi. Shu paytdan boshlab u maxsus faoliyat turi - o'qitishning sub'ektiga aylanadi, o'qitishning maqsadi esa bilim egallashdan iborat bo'ladi.


O'qitish jarayoni ikki bosqichdan iborat:

1) har qanday foydali faoliyat uchun zarur bo'lgan, dunyo sir-sinoatlari haqida qayd etilgan va ilmiy tan olingan axborotlar olish;

2) malakalar hosil qilish - ya'ni aniq sharoitlarda amalga oshadigan usullar va avtomatlashgan operatsiyalarni egallah.

Qo'yilgan maqsadga mos keluvchi bilim va malakalarning zarur faoliyat bilan bog'lanishi ko'nikma asoslarini tashkil etadi. O'qitish faoliyati shunday alohida xususiyatlar bilan xarakterlanadiki, bunda insonning faoliyati aqliy maqsadga bo'ysundiriladi, ya'ni ma'lum bilim, ko'nikma va malaka egallanadi.

O'quvchining kasbiy ko'nikmalarni tez va oson o'zlashtirishi uning nafaqat umumiy qibiliyatlar, balki shu asosda shakllangan maxsus kasbiy qobiliyatlarning ham yuqori darajada ekanligini bildiradi.



Ko'nikma va malakalarni faoliyat tavsifiga ko'ra tasniflash. Misol uchun, bir guruhni intellektual ko'nikma (eshitish qobiliyati, kitob bilan ishslash, insho yozish, reja tuzish, o'z ishini rejorashtirish, uni qulay tashkil etish) va malakalar (yozuv savodxonligi, ifodali o'qish) tashkil qiladi. Ikkinchisi guruhga mehnat ko'nikmalar (chizmalar bo'yicha buyum yasay olish) va alohida avtomatlashgan mehnat operatsiyalari (arralash, qirqish, randalash, kesish malakalari) kiradi. Bu guruhga harakat va konstruktiv texnik ko'nikma va malakalar kiradi, bunda ikkinchisi hamma vaqt asbob va mashinalar bilan ishslashga bog'liq bo'ladi.

Uchinchi guruhni jismoniy tarbiya va sport ko'nikmalar (jismoniy tarbiya mashqlarini bajara olish) va malakalari (sakrash, suzish, arqonga chiqish) tashkil qiladi. Odatda gigienik ko'nikma va malakalarni ham alohida guruh sifatida qaraladi.

Bundan tashqari malakalar murakkablik va avtomatlashganlik darajalariga ko'ra ham farqlanadi.

Ko'nikma va malakalarning umumiyligi va farqli jihatlari mavjud. Ko'nikma va malakalarni ularning individ faoliyati usullari ekanligi, ya'ni o'zlashtirilgan bilimlar asosida amalga oshiriladigan operatsiya va uslublar tizimi ekanligini birlashtiradi. Ularning farqi - o'rghanuvchilar tavsifi turlicha ekanlidigkeitidir.

Ko'pchilik holatlarda insonlardagi malakalar harakatni ongli avtomatlashuv asosida, harakatni bajarishning avtomatlashgan komponenti - "ongli operatsiya" sifatida harakatlarning operatsiyaga aylanishi asosida hosil bo'ladi. Uning ahamiyati ongning harakat tarkibiga kiruvchi usul va operatsiyalarni bajarish ustidan bevosita

nazorat qilishi bilan belgilanadi<sup>1</sup>. U bitta harakatni bir xil sharoitlarda bir necha marta takrorlab mashq qilish orqali ikki yo‘l bilan amalga oshiradi: 1) maxsus tashkil qilinadigan tor maqsadli mashqlar yordamida; 2) o‘rganuvchidan turli malakalarni birlashtirishni talab qiluvchi umumiylaysi tafsifdagi mashqlar tarkibida o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan harakatni ko‘p martalab kiritish yo‘li bilan. Misol uchun tez o‘qish malakasi tovushlarni qo‘sib talaffuz qilishga qaratilgan mashqlar tizimini bajarish yordamida hosil qilinadi.

Aniq holatlar (mashqlar) bilan belgilanadigan, maqsad sifatida qabul qiluvchi har qanday malaka (avtomatlashgan operatsiya) A.N.Leontev tomonidan olg‘a surilgan inson faoliyati konsepsiyasiga ko‘ra ikkita o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan yo‘llar bilan shakllanishi mumkin. Agar faoliyat davomida harakat alohida qismlarning bitta murakkab harakatga birikuvi yuzaga kelsa, u holda ilgari mustaqil bo‘lgan (o‘z maqsadlariga yo‘naltirilgan) alohida harakatlar uni bajarish uchun unda tarkibiy o‘rin egallaydi, ya’ni operatsiyaga aylanadi. Bu "ongli operatsiyalar" (malakalar) deb qabul qilinadi. Biroq A.N.Leontev fikricha, bir harakatning ikkinchisiga yoki namoyish qilinadigan etalon operatsiyaga o‘xshatish holatiga "biriktirish" bilan belgilanuvchi ikkinchi yo‘li ham mavjud. Ongli operatsiyalar (malakalar) harakatni bajarish sharoitlariga oddiy ko‘nikish vositasida hosil bo‘lgan operatsiyalardan moslashuvchanlik va boshqaruvchanlikka ega bo‘ladi.

Albatta, ta’limda operatsiya(malaka) bo‘lishining birinchi yo‘li asosiy ahamiyatga ega bo‘ladi, bunda "anglab olingan operatsiyalar dastlab maqsadga muvofiq jarayoni sifatida shakllanadi" ular faqatgina keyinchalik avtomatlashgan malakaga aylanishi mumkin. Bunda o‘rganuvchining oldiga shunday maqsad qo‘yish kerakki, natijada berilgan harakat boshqa bir harakatni bajarish usuliga aylanib qoladi. Ilgari kichik maqsadlarga yo‘naltirilgan tashkil qiluvchilar harakatni bajarish jarayonida yangi murakkab maqsadga erishish usuliga aylanib qolishi lozim.

Operatsiya(malaka)larning harakatga bog‘liqligidan tashqari, A.N.Leontev harakatlar shakllanishining operatsiya(malaka)lar shakllanishidan teskari aloqasini uqtirib: “operatsiyalar rivojlanishining yetarlicha yuqori darajasi nisbatan murakkabroq operatsiyalarni bajarish imkoniyatini beradi, bu murakkab harakatlar operatsiyalarga zamin tayyorlashi mumkin va h.k.” degan fikrni bildiradi. Chamasi bu bog‘liqlikni inobatga olish pedagogik faoliyat sohasida ko‘nikma va malakalar shakllanishini bajarishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Malakaning xarakterli jihat shundaki, mashqlar yordamida o‘zlashtirilgan va avtomatlashgan harakat uslublari nisbatan ancha mustahkamligi bilan farqlanadi. Bu

jihat insonlarning ko‘plab malakalariga tegishlidir (yurishi, salomlashishi uchun qo‘l uzatish), bunda bir operatsiyaning o‘zi turli operatsiyalarga javoban amalga oshiriladi<sup>2</sup>.

Turg‘unlik bilan bir qatorda malakalar moslashuvchanlik bilan ham xarakterlanadi, ya’ni harakat usulining sharoit o‘zgarishiga mos ravishda o‘zgarib borishdir (albatta ma’lum chegarada). Shu sababli malakani qo‘llashda bu sharoitlar qanchalik turli-tuman bo‘lsa u shunchalik moslashuvchan bo‘lib boradi, yoki aksincha bir xillik malakalar bir xilligiga olib keladi.

Malakalar (avtomatlashgan operatsiyalar) inson faoliyatining barcha turlarida zarur bo‘ladi. Malakalarni egallamasdan turib: mehnat qurollaridan muvaffaqiyatli foydalanish mumkin emas, hisoblashlarni amalga oshirib bo‘lmaydi, ilmiy-badiiy adabiyotlarni o‘qib bo‘lmaydi, san’at, sport, ilmiy yoki har qanday boshqa kasbiy faoliyat bilan shug‘ullanib bo‘lmaydi. Anglangan operatsiyalar (malakalar) ayniqsa harakat to‘xtovsiz o‘zgarib turuvchi sharoitda amalga oshganda, harakat usulini shoshamasdan o‘ylab olish mumkin bo‘lmaganda, o‘zgaruvchan sharoitda tezkor va aniq harakat qilish talab etilganda muhim ahamiyat kasb etadi. Misol uchun bunday holat pedagoglarda doimiy hisoblanadi. Demak, xuddi mana shu o‘rinda moslashuvchan va boshqaruvchan anglangan operatsiyalar talab etiladi.

Umummehnat ko‘nikmalar tabiatini to‘g‘risida muammoni hal qilishda biz ko‘nikmalar deganda operatsiya va harakatlarning nisbatan murakkab tizimini egallah, inson uchun yangi bo‘lgan sharoitlarda qo‘llash, faoliyati o‘zlashtirilgan bilim va malakalar asosida maqsadga muvofiq rostlashni qabul qiluvchi psixologlar fikrlaridan kelib chiqib ish ko‘rdik.

Bu fikrlarga Ye.A.Mileryan tomonidan bildirilgan: “umummehnat ko‘nikmalar politexnik bilim va malakalarga asoslangan ishchining o‘zgaruvchan sharoitlarda o‘zi uchun yangi bo‘lgan mehnat faoliyatida umumlashgan, turli mehnat sharoitlari uchun xos bo‘lgan ishni bajarishga turli usul va uslublar yordamida erishish qobiliyatiga aytiladi” - degan so‘zlari juda yaqin keladi.

Bunda, fiziologik nuqtai nazardan qaraganda bir yoqdan ilgari hosil qilingan davriy bog‘lanishlarning qo‘llanishi amalga oshadi, ikkinchidan u yoki bu darajadagi murakkabligidagi kombinatsiya va qayta kombinatsiyalashuv amalga oshadi. Masalalarni yecha olish ko‘nikmalar, reja tuza olish, konspekt yozish ko‘nikmalar, va h.k., shuningdek mehnat ko‘nikmalar ham shular qatoridadir.

Keltirilgan Ye.A.Mileryan fikrini sharhlab o‘tish lozim. Ko‘nikmalarni inson faoliyatida muvaffaqiyatga tez va oson erishishidan farqlash lozim. Boshqa jihatdan, faoliyat texnik jihatlarni rivojlantirishga mos ravishdagi qobiliyatlarni yetarli darajada rivojlantirmasdan turib erishish mumkin emas.

Ko'nikma asosi bo'lib nafaqat mos ravishdagi harakat va operatsiyalar, balki boshqa faoliyatni amalga oshirishda o'zlashtirilgan bilim va malakalar ham xizmat qilishi mumkin. Ishchi, garchi u hozirda yechilayotgan vazifalar bilan bevosita bog'liq bo'lmasada bu yangi vazifalarni egallagan bilim va malakalarga asoslanib bajarishi mumkin. Bizning fikrimizcha, adabiyotlarda uchraydigan "dastlabki ko'nikma" atamasi "dastlabki ko'nikmalar"da o'r ganuvchi harakati asl, takomillashgan ("ikkilamchi") ko'nikmalardan farq qilishini anglagan holda shartli qabul qilinishi mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзиёев Ш. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2019; Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2019.;
2. Авлоний А. «Турки гулистон ёхуд аҳлоқ». - Т.: Ўқитувчи - 1992. 160 б.
3. Алексин И. А., Сливин Т.С., Тенилов С.В. Теоретические основы педагогики высшей школы в логических схемах и таблицах. – М.: ВПА, 2003. – 118 с.
4. Абульханова-Славская К.А. Личностный аспект проблемы общения. Проблема общения в психологии. - М., 2008.
5. Амонашвили Ш А. Здравствуйте, дети. - М: Педагогика. - 2010.
6. Андреева Г. М. Социальная психология. — М., 1990, 2006.